



2019

ЗАМОНАВИЙ ИЛМ-ФАННИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИ

Инновационное развитие современной науки



Республика микёсидаги
илмий-амалий анжуман
тўплами

Болаларни чиниктириш ёш авлодни соғлом қилиб тарбиялашга имкон берадиган асосий профилактик тадбирдир. Болалар соф ҳаво етишмаслигига жуда сезувчан бўлади. Узоқ муддатгача яхши шимоллатилмайдиган хоналарда бўлган болалар ланж, инжиқ бўлади. Уйқуси бузилади, иштаҳаси бўлмайди, боши оғрийди, кўнгли айниб туради, камқонлик рўй беради. Гўдак атроф муҳитнинг физик омилрига аста-секин мослашади, чунки унинг муҳофаза реакциялари суст ривожланган бўлади. Болани ҳаётининг биринчи кунларидан бошлаб эҳтиётлик билан мунтазам чиниктира бориш, лекин бунда унинг аъзо ва тизимлари функционал жиҳатдан ҳали етилмаганлигини ёддан чиқармаслик керак. Гипотрофия, рахит, каталаб турадиган ёки сурункали касалликлардан кучсизланган болалар организми чидамини оширадиган муолажаларга, айниқса, муҳтож бўлади. Соф ҳаво ҳар қандай касалликларда самарали таъсир кўрсатади. Нимжон ва касалманд болаларга асосан суст таъсир этадиган сув муолажалари ҳўл сочиқ билан артиб туриш, оёғига сув куйиш тавсия қилинади. Сув ҳ-рти (35-36°) аста-секин пасайтириб борилади ва боланинг умумий ҳолати яхшиланганда соғлом болалар учун тавсия этиладиган даражага етказилади.

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

1. Нормуродов А.Н. Жисмоний тарбия. Ўқув қўлланма. Т.: 2011. Электрон таълим ресурслари:
2. Колбанов В.В.. Бошланғич мактабларда валеологик таълим. Бошланғич мактаб. №4, – М.: 1999 й.
3. Шарипова Д.Д., Шахмурова Г.А, Ибрагимходжаев Б.У., Маннапова Н.Ш. Валеология асослари. Мустақил таълим машғулотлари учун методик қўлланма. Гарнитура Times Nev Roman. 5 б.т. Т. 2010.

Maxsus maqsadlarga yo`naltirilgan ingliz tilini o`qitilishining ahamiyati.

**Katta o`qituvchi N. Mirzayeva.
Andijon Mashinaszlik instituti**

Hozirgi davrda ingliz tilini jamiyatdagi ahamiyatini xech kim inkor qila olmaydi. U butun dunyoda ikkinchi til va xorijiy til shaklida o`rgatilmoqda. So`ngi yillarda xorijiy tillarni chuqur o`zlashtirgan, malakali mutaxassislarga bo`lgan talab oshib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasi haqidagi farmon"ida aytilganidek, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlaridan biri - bu ta`lim va fan sohasini rivojlantirishdir, xususan uzluksiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirish yo`lini davom ettirish, sifatli ta`lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlashdir. (1)

Ilm-fanda ham katta o'zgarishlar sezilmoqda. Har bir fanni yangi innovasion texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Jamiyat inson manfaatiga qaratilgan islohatlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning aql zakovati, ko'nikma va salohiyatiga bog'liqdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog'ining ommalashuvi barcha yo'nalishlarda zamonaviy bilimlarni egallash, madaniy, iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishni taqozo etadi. O'z navbatida, bu xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirish va xorijiy tillarda so'zlashuvchi mutaxassislarni tayyorlash masalasiga chuqur e'tibor qaratishni talab etadi. (2)

Hozirda nofilologik yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalarga ingliz tilini o'rgatishda Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes) asos qilinib olinmoqda. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes)-mutaxassislik fani asosida ingliz tilidan muloqat ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zlagan holda talaba markazlashgan yondoshuvi asosida ingliz tilini o'qitishdan iborat. Mutaxassislik fanlaridagi ingliz tilida muloqat ko'nikmalari, bular alohida sohalarni yani muxandislik, iqtisodiyot, buxgalteriya, boshqaruv, huquqshunoslik, IT texnologiyalar, sog'lik va tabobat va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes)ni mazmuni va ta'rifini ko'rib chiqsak. Aslida English for Specific Purposes umumiy maqsadlardagi ingliz tili ishtirokchilariga mo'ljallangan ingliz tili o'qitishning (English Language Teaching) bir qismidir. Mc Donoughning lug'at ta'rif (1998, 105) "“ESP” alohida maqsad va aniq shaklangan talablarda o'rganayotgan jamoa va yakka tartibdagi o'rganuvchilar uchun loyixalashtirilgan til dasturlarini ifodalaydi”(3) John va Prais Makadolarning (2001, 43 bet) ta'rif quyidagicha tasvirlangan. Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili - bu barcha tillarni aniq sohani va tilni o'rganishdagi talabalar guruhlarining aniqlangan ehtiyojlariga moslashgan va shuningdek bu ingliz tilidan foydalanishda talabalar ijtimoiy-madaniy matnlarni xis qilishlariga asoslangan harakatdir.

Floverdyu va Pikok (2001)larni ta'kidlashicha ESP ikkita sohadan iborat bo'lib, birinchisi EAP (English for Academic Purposes) va boshqasi EOP (English for Occupational Purposes). EAP va EOP o'rtasidagi farq aniq emas, chunki oliygohlarda tayyorlanayotgan talabalar o'qishni tamomlaganlaridan so'ng duch kelishi mumkin bo'lgan dolzarb kasbiy faoliyatga oidlarini o'rganadilar. (3)

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “O'zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi haqidagi farmon” 2017 yil.
2. Aripova N. “Mutaxassislik fanini ingliz tilida o'qitishda xorijiy tajriba va zamonaviy tendensiyalarning o'rni”. Enchanceng Foreign Langauge

IV-ШЎБА

1.	И.Н. Пузенко. Инновационные процессы в сфере высшего образования в республике беларусь: интеграция образования и науки.	745
2.	Д.А.Ийманова. Н.Д.Абдувохитов. Ўзбекистоннинг янги қиёфасини яратишда таълим-тарбия соҳасидаги ислохотлар аҳамияти.	747
3.	И.Сулаймонов. Инсон ва экология.	750
4.	С.Т.Шарипова.М.А.Мансурова. Олий таълимда махсус фанларни ўзлаштириш жараёнида мустақил таълимнинг аҳамияти	754
5.	С.С.Софиев,А.Юлдашев,С.М.Исамов. Спортчилар фаолиятидаги шкестланишларнинг асосий сабаблари ва уларнинг тахлили.	757
6.	М.Назаров. Ж.Ғаниев. Фалсафада ижодий тафаккурнинг ўрни.	760
7.	М.Назаров.Э.Мамажонов. Техника фалсафаси – тафаккур тараққиётнинг янги босқичи.	763
8.	М.Назаров. А.Ибрагимов. Интер фаолликнинг ахборот тизимини яратишдаги роли.	765
9.	М.Назаров.С.Азимов. Инновацион технологияларнинг ижтимоий аҳамияти.	767
10.	Ф.Тайляқова. М.Махаматжонов. Мурожаатномада илм-фан ва таълимдаги ютуқлари ҳақида.	770
11.	М.Тўланов. Э.Юсунов. Миллий маданий марказлар фаолияти.	772
12.	M.R. Azizova. Learning languages through literature.	775
13.	M.R. Azizova. Vocabulary is an important factor in teaching any language.	778
14.	М.Р.Азизова.Б.Бурунов. Некоторые проблемы развития устной речи.	780
15.	Karimova F.I. Applying grammar variations in teaching English.	782
16.	Э.Ю.Юлчиев. Э.Э.Юсунов. Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар жалб этишнинг айрим йўналишлари.	784
17.	Э.Ю.Юлчиев. Э.Э.Юсунов. Ёшларни ижтимоий ҳаётга қўништиришнинг айрим муаммолари.	787
18.	М.К.Тўланов. Э.Э.Юсунов. Тадбиркорлик ижтимоий ривожланиш омилли.	790
19.	Х.У. Васнев. М.М. Иброҳимова. М.Н.Нажимов. Замонавий инновацион педагогик технологиялар ва уларни таълим жараёнида қўллаш.	792
20.	Д.Зайнобиддинов. С.Шокирова. Баркамол авлодни шакллантиришда жисмоний тарбия ва тўғарак машғулотларнинг ўрни.	795
21.	Д. Зайнобиддинов. А. Мамадалиев. Жисмоний тарбиянинг соғлом авлодни тарбиялашдаги роли.	798
22.	Д.Зайнобиддинов. Х.Тўраев. Жисмоний тарбия йўли билан организмни чиништиришнинг аҳамияти.	800
23.	N.Mirzayeva. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitilishining ahamiyati.	803
24.	M.I.Ibragimova. N. Abdumuminova. Innovative ways of teaching English.	805
25.	М.Хасанова. Техника олий ўқув юрларида чет тилини касбий йўналтирилган ҳолда ўқитиш.	809
26.	Z.Gofforov. Globallashuv jarayonida internetni o'rni va ahamiyati.	811
27.	Z.Gofforov. A. O'sarov. O'zbekistonda internet tarixi va ijtimoiy saytlarning	814